



OGAHIYNING TARJIMONLIK MAHORATI

Kazakboyeva Parvina Alisher qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq sivilizatsiyasi va tarixi fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zbek mumtoz adabiyotining yetuk namoyandasi Ogahiyning hayot yo‘li, uning siyosiy faoliyati va ijodi haqida yozildi. Ogahiyning tarjimonlik mahorati va boshqa tillardan tarjima qilgan asarlari xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Tarjimon, mirob, “Ravzat us-safo”, “Zubdat ul-hikoyat”, “Miftah al-tolibin”, “Haft paykar”, “Nasihatnoma”, “Qobusnoma”, “Taboqati Akbarshohiy”, “Tarixi Jahonkushoyi Nodiriy”, “Daloyil al-hayrot”.

OGAHI'S TRANSLATION SKILLS

Kazakboyeva Parvina Alisher qizi
Tashkent state university of oriental studies
2-course student Faculty of Easter civilization and history

Abstract: This article was written about the life path of Ogahi, a mature representative of Uzbek classical literature, his political activity and creativity. It is about Ogahi's translation skills and his works translated from other languages.

Key words: Translator, Mirab, "Rawzat us-safa", "Zubdat ul-hikayat", "Miftah al-talibin", "Haft paykar", "Nasihatnama", "Kabusnama", "Tabaqati Akbarshahi", "Tarihi Jahankushoyi Nadiri", "Dalayil al-hayrat".

Kirish: O‘zbek mumtoz adabiyotining yetuk namoyandalaridan bir tarixchi, tarjimon Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiydir. U 1809-yil Xorazmning Qiyot qishlog‘ida dunyoga kelgan. Ogahiy Xiva madrasalarida ta‘lim olib yurgan kezlari otasi vafot etdi. Uni mashhur shoir va tarixchi, amakisi Shermuhammad Munis o‘z qaramog‘iga oldi. 20 yoshga to‘lganda amaksi ham vafot etdi. Xiva xoni Olloqulixon uni mirzolik vazifasidan miroblik vazifasiga ko‘tardi. Ayni vaqtda u xonning buyrug‘i bilan Munisning “Firdavs ul-iqbol” nomli tarixiy kitobini davom ettirdi. Yosh shoir Muhammad Rizo Ogahiy ijod bilan ham shug‘ullanib, sharq tarixiga doir ko‘plab asarlarni ham tarjima qildi.



Asosiy qism: Ogahiy Xiva xonligining fors tilida o‘zbek tiliga tarjima qiluvchi tarjimonlar maktabining peshqadamidir. Uning tarjimonlik faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, u ijodning ilk yillarida fors tilidan tarixiy asarlarni tarjima qilishdan boshlagan va mahorati oshib, borgan sayin badiiy asarlarni nazmdan nasrga o‘g‘irgan. Ogahiy Mirxondning “Ravzat us-safo” kitobini ko‘p yillar davomida tarjima qilgan va boshqa tarjimonlarga bosh-qosh bo‘lgan. Bu asar 7 jilddan iborat bo‘lib, Ogahiy asarning ikkinchi jild ikkinchi qisminiva uchinchi jildini tarjima qilgan. Umumiy 7 ta qo‘lyozma bor. Ikkinchi jildning 3 ta qo‘lyozmasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida va bittasi Rossiya Milliy kutubxonasida saqlanmoqda. Uchinchi jild to‘rtta nusxasi Sharqshunoslik institutida saqlangan holda bizgacha yetib kelgan.

Shuning Ogahiy Muhammad Vorisning “Zubdat ul-hikoyat” nomli asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Muhammad Vorisning ushbu asari axloqiy hikoyalardan iborat bo‘lib, tarixchi olimlarning asarini o‘rganish asnosida yozilgan. Asarning tarjimasini Sayyid Muhammadxon farmoniga binoan amalga oshirilgan. Tarjimaning 2 ta qo‘lyozmasi mavjud. Ogahiy tomonidan tarjima qilingan yangi nusxasi hozirda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institute qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Serqirra ijodkor Joni Mahmud Shayx Ali ibn Imomiddin al-G‘ijduvoniyning 1543-yilda yozilgan “Miftah al-tolibin” asarini ham o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Bu asar ham Xiva xoni Sayyid Muhammadxon farmoniga binoan amalga oshirilgan bo‘lib, kasal bo‘lishiga qaramay 1859 yilda, 44 kun ichida tarjima qilgan.

Abu Muhammad Ilyos ibn Yusuf Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa” asarining to‘rtinchi dostoni “Haft paykar” ham Ogahiy tomonidan tarjima qilingan. Nasriy tarjima Muhammad Rahimxon II (Feruz) ga bag‘ishlangan bo‘lib, uning farmoni asosida tarjima qilingan.

Ogahiy Kaykovus ib Iskandar ibn Qobus ibn Vashmagirning o‘z o‘g‘li Gilonshoh uchun yozgan, mashhur “Nasihatnoma” yoki “Qobusnoma” asarini ham o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Bu asar 44 bobdan tashkil topgan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan so‘zlar va hikoyalardan tashkil topgan. Ogahiy bu asarni tarjima qilishdan avval kichkinagina bir muqaddimada Xiva xoni Muhammad Rahimxon II buyrug‘i ila tarjima qilganini yozgan. Bu asarning 3 ta nusxasi mavjud. Ogahiy tarjimasini O‘zR Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

Shuningdek, Ogahiy Nizomiddin Ahmad ibn Muhammad Muqim Hiraviyning 1592-yilda tasnif qilingan “Tabaqoti Akbarshohi” tarixiy asarini ham tarjima qilgan.



Tarjima Sayyid Muhammadxonning buyrug'iga binoan qilingan. Qo'lyozma yagona nusxada bizgacha yetib kelgan. Asarda Ogahiy tarjimasida Sayyid Muhammadxon davrida boshlanganligi aytiladi, ammo tez orada xon vafot etadi. Muhammad Rahimxon II taxtga kelgandan so'ng tarjimani tugatishni buyurdi. Asar 1864-yilda tarjima qilingan.

Ogahiy Muhammad Mahdiy Astrabodiy ibn Muhammad Nosir tomonidan yozilgan "Tarixi Jahonkushoniy Nodiriy" yoki "Tarixi Nodiriy" nomli asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bu asar Eron shohi Nodirshihning (1736-1747) hukmronlik qilgan davrini o'z ichiga oladi. Bu asarning o'zbekcha tarjimasidan ikki nusxa Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida mavjud. Bu asarning Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinganligi to'g'risida qo'lyozmalarning o'zida hech qanday ma'lumot keltirilmagan. Lekin bu asarning Xorazmda tarjima etilishi va ko'chirilishi Ogahiy devonining muqaddimasida, u tomonidan tarjima qilingan asarlar ro'yxatida "Tarixi Nodiriy" ning bo'lishi, bu asarning Ogahiy tomonidan tarjima qilinganligining isboti bo'la oladi.

XV asrda musulmon aqidashunoslaridan Abdulla Muhammad ibn al-Juzuliy tomonidan arab tilida bitilgan "Daloyil al-hayrot" asari ham Ogahiy tomonidan tarjima qilingan. Uning sharhi Fasih al-Qasriy tomonidan usmonli turk tilida yozilgan. Yagona nusxada saqlangan matn usmonli turk tilidan O'rta Osiyo turkiysiga Sayyid Muhammadxon topshirig'iga binoan o'girilgan.

Shuningdek, Ogahiy "Ta'viz ul-oshiqin" devonining kirish qismida shunday deb yozadi:

"Faqirning turkiy tili birla tarjima qilg'on asarlari – "Ravzat us-safo"ning ikkinchi daftaridan chekar yori izom voqeasi va uchinchi daftari. "Nodirnoma" va "Zafarnoma" va "Zubdat ul-hikoyat" va "Miftih ul-tolibiy" va "Axloq ul-Muhsiniyi" Vosifiy va "Nasihatnomai Kaykovus" va "Salomonu Absal"i Jomiy va "Guliston"i Sa'diy va "Bahoristoni" Jomiy va "Ravzat us-safo"i Nosiriyning bir daftari va "Daloil ul-xayrot" sharhi kim, rum turkiysidin chig'atoy tiliga o'tkazmoq va "Tazkirai Muqimxoniy" va "Tabaqoti Akbarshohiy" va "Haft paykar"i Nizomiy va "Hasht bihisht"i Xusraviy" va "Yusuf va Zulayho"i Jomiy, "Shohu gadoi" Hiloliy kabi asarlarni tarjima qilgan.

Xulosa: Ogahiy davlat arbobi miroblik kasbidan rasman faoliyat yuritganiga qaramay, qo'ng'iroq xonlari uni o'tkir qalam sohibi, shoir va muarrix sifatida qadrlashgan. Adibning salmoqli ijodini tarjimonlik faoliyati tashkil qilganiga qaramasdan, uning ushbu qirrasini hali to'laligicha yoritilmagan. Bu esa o'z navbatida,



O ‘rta Osiyo turkiy tiliga eng ko‘p tarjima qilgan mutarjimning faoliyati chuqur tadqiqotlarga tortilishi lozimligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Munirov. Q “Xorazmda tarixnavislik”. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va San‘at nashriyoti. Toshkent. 2002.
2. Dolimov. S. Ogahiyning hayoti va ijodi. Toshkent. 1963.
3. Komilov. N. Ogahiyning tarjimonlik mahorati. Toshkent. 1970.
4. Abdug‘afurov. A. Muhammad Rizo Ogahiy. Meros. Toshkent. 1999.